

ERKIN VOHIDOV – O‘ZBEK ADABIYOTINING YORQIN YULDUZI

Shahloxon Bahromova,

Qo‘qon DPI ”Boshlang‘ich ta‘lim” yo‘nalishi talabasi.

Rahbar: Zokirjon Isaqov – filol. fan. nomzodi, dotsent.

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Qahramoni – Erkin Vohidov, uning tarjimayi holi, ijodiy faoliyati haqida so‘z boradi, shuningdek, ijod namunalaridan parchalar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston Qahramoni, ”Nido”, ”Quyosh maskani”, ”Bolalik”, ”Oqsoqol”, ”Bolalik ekan-da”, devon, g‘azal.*

Kirish. Erkin Vohidov – O‘zbekiston Qahramoni. XX asr o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Erkin Vohidov ijodi o‘ziga xosligi va ko‘pqirraliligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. XX asr o‘zbek adabiyoti va madaniyati shoir nomi bilan chambarchas bog‘landi. Shoir kamalakdek serjilo, purviqor ijodi bilan xalqimizning qalbiga kirib bordi. Uning ijodini qamrab olgan milliylik, odamiylik, falsafiylik, tarixiylik kabi ezgu g‘oyalar tamoyili beixtiyor kitobxonni poetik mushohadaga chorlaydi. Hayot haqiqatini murakkabligi va to‘lig‘icha, ziddiyatlari bilan boricha namoyon etish, o‘tkir ijodiy masalalarni dadil ko‘tarib chiqish, ma‘naviy va jismoniy ruh erkinligini badiiy tasvirlash shoir ijodining asosiy xususiyatlaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevichning 1999-yil 25-avgustdagi Farmoniga binoan millatimiz ma‘naviyatining yuksalishida o‘ziga xos o‘rin tutgan, O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, islohotlarni chuqurlashtirish, yurtimiz ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayoti rivojiga qo‘shgan salmoqli hissasi, davlatimiz va xalqimiz oldidagi ulkan xizmatlari hamda qahramonona mehnatlari uchun bir nechta yurtdoshlarimiz qatori Erkin Vohidovning ham ”O‘zbekiston Qahramoni” unvoniga sazovor bo‘lgani shoir muxlislarining ko‘ngliga mislsiz quvonch baxsh etadi. Erkin Vohidov ijodi ham tadqiqotchilarni o‘ziga chorlashda davom etmoqda. Uning ijodini o‘rganish yillar o‘tgan

sayin yangicha qirralari kashf etilishi orqali diqqat markazidan tushmay kelyapti.

Asosiy qism

Erkin Vohidov ijodi o‘zining samimiy, sodda, musaffo nafasi bilan barchani birdek o‘ziga chorlab turadi. Shoir serqirra ijod sohibi hisoblanadi. Bo‘lajak shoir tarjimayi holiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, uning hayoti oson kechmaganini ko‘rish mumkin. Shoir 1936-yil 28-dekabrda so‘lim Farg‘onaning Oltiariq tumanida – o‘qituvchi oilasida tug‘ildi. Otasi, Cho‘yanboy Vohidov, ikkinchi jahon urushidan keyin Toshkentga qaytib, ko‘p vaqt o‘tmay, vafot etadi. Onasi, Roziyaxon Vohidova ham dunyodan o‘tib, bo‘lajak shoir tog‘asi Karimboy Sohiboyev tarbiyasida qoldi. Ota-onasi o‘sha davrning ma‘rifatli kishilaridan bo‘lishgan. ”O‘ylab qarasam, bolalik xotiralarimning ko‘pchiligi she‘rlarga, dostonlarga ko‘chgan ekan. ”Nido”, ”Quyosh maskani” poemalari, ”Bolalik”, ”Oqsoqol”, ”Bolalik ekan-da” she‘rlari o‘sha murg‘ak tasavvur, ilk xotiralarning mevasi bo‘lgan, deb eslaydi shoir.

Toshkentda kechgan bolalik va o‘smirlik yillarimdan qolgan eng yorqin esdaliklar Ostrovskiy nomli pionerlar saroyidagi shoir G‘ayratiy to‘garagi va tog‘amning xonadonida bo‘lib turadigan adabiy suhbatlar bilan bog‘liq”, – deb yozadi shoir. Erkin Vohidov bolaligini o‘sha davrning ko‘pchilik kishilari qatori mahzunlik bilan tilga oladi:

Xayolning tumanli pardasi aro
Yillar ko‘z oldimda charx urayotir,
Qishloq ko‘chasidan zanjiday qaro
Olov bolaligim yugurayotir ... (”Nido” dostonidan)

Shoir ushbu parchada urush tufayli otasidan, quvnoq bolaligidan judo bo‘lgan qahramon iztiroblarini aks ettiradi. Ushbu dostonini shoir otasiga bag‘ishlaydi va quyidagi misralar orqali ifodalaydi:

Bag‘rim o‘yib
Bu kun menga bermoqda azob
Sizning ko‘ksingizni teshgan qora o‘q.
Silqib oqayotir
Ko‘kragimdan qon.

Qalvim o‘rtanmoqda, so‘zsiz armonim ...

Yurak qonim bilan bitgan dostonim

Sizga bag‘ishladim

Otajon! ("Nido" dostonidan)

Shoirning ilk she‘riy mashqi 7-sinfda o‘qib yurgan paytlarida

"Mushtum" jurnali sahifalarida bosilib chiqdi. Ilk she‘riy kitobi talabalik yillarida "Tong nafasi" nomi bilan bosilib chiqdi. Bu davrni shoir: "Sergey Yesenin she‘rlaridan tarjimalar qildim. Yozuvchilar uyushmasining yosh ijodkorlar seminaridagi qizg‘in bahslar, ulug‘ ustozlar – Oybek, G‘.G‘ulom, A.Qahhor, Mirtemir, Shayxzodalar bilan ilk muloqot va uchrashuvlar, universitet dargohidagi adabiy muhit hayotimda o‘chmas iz qoldirdi", – deb eslaydi.

E.Vohidov ijodida g‘azal, qasida, muxammas kabi janrlarga qo‘l urib, mumtoz adabiyot tajribalarini yanada boyitish, yanada mukammallashtirishga intildi. Ayniqsa, "Yoshlik devon"iga kirgan she‘rlar bu jihatdan e‘tiborlidir. "Yoshlik devoni" to‘plamini shoir Abdulla Oripov yuqori baholagan.

"Yoshlik devoni"ni o‘qir ekansiz, shoir qalbidan sizib chiqayotgan ma‘sum tuyg‘ular go‘yo sirli, sehrli so‘zlarga aylanadi. Shoir ukparday mayin bu so‘zlarni to‘zg‘itib o‘ynaydi-yu, ulardan go‘zal, o‘ynoqi ohanglar yaratadi, so‘ngra esa ular asta o‘rni-o‘rniga tushadi, xuddi dastgohdan chiqayotganday, quyma, betakror satrlar paydo bo‘layotganday taassurot qoldiradi kishida:

Tun bilan yig‘labdi bulbul,

G‘uncha hajri dog‘ida.

Ko‘z yoshi shabnam bo‘lib

Qolmish uning yaprog‘ida.

Ona tilimizdagi ipakdek mayin, kamalakdek rang-barang, g‘oyat nozik lutf, beozor qochirimlar, goh hazin, goh samimiy tabassum uyg‘otuvchi tashbehtar, o‘tkir xulosalar bular bari ulkan shoirimiz qalamiga mansub betakror fazilatlaridir.

Erkin Vohidov aruz vazniga qayta jon baxsh etgan ijodkor hisoblanadi. Bu haqida adabiyotshunos Abdulhamid Nurmonov shunday deydi: "Alisher Navoiy "turkiyda go‘zal asarlar yozish mumkin emas",

degan aqidaga o‘zining ”Xazoyin ul-maoniy”, ”Xamsa” singari asarlari bilan chek qo‘ygan bo‘lsa, Erkin Vohidov ”g‘azal o‘z umrini o‘tab bo‘ldi, hozirgi voqeligimizni bu janr orqali ifodalab bo‘lmaydi”, degan aqidani o‘zining ”Yoshlik devoni” bilan chippakka chiqargan edi”. Ma’lumki, mumtoz she’riyatda vaqt tushunchasi ancha nisbiy bo‘lgan. Chunki mumtoz shoirlar o‘tkinchi, bugunning tashvishlari aks etgan mavzularga qo‘l urmaganlar. Shuning uchun ham ularning ijodida o‘z davrining belgilari ko‘zga tashlanib turmaydi. E.Vohidovning g‘azallarida esa bugunning nuqsoni aks etadi.

Xullas, Erkin Vohidov ijod ummonidagi marjonlarni yanada chuqurroq o‘rganish, uni xalqimizga sofligicha targ‘ib qilish biz yoshlarning zimmamizdadir.

O‘tar g‘avg‘oli bu onlar, kelar osuda davronlar,
Zakiy, erkin g‘azalxonlar berar bir kun baho menga.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzaliyeva S., Shokirova R. O‘zbek adiblari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 2016.
2. Vohidov E. Yoshlik devoni. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969.
3. Vohidov E. Qalb sadoqati. 5-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 2018.
4. Bobur Nusratov. Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida lirik qahramon talqini. Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar. 2025. Avgust. 1062-1068-betlar.
5. Turdiyeva, Y. The Phenomenon OF Artistic Style in Uzbek Literature. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 6(12), 22-23.
6. Shoxista, M. (2023). Mahmudova Sh. A. Ijodkor va ijodiy biografiya. *Alfraganus*, 47-51.
<https://cyberleninka.ru/article/n/mahmudova-sh-a-ijodkor-va-ijodiy-biografiya>. M Shoxista - Alfraganus, 2023 - cyberleninka.ru

7. Umarova, N. R. (2024). Abdulla oripov she'riyati abadiydir. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 971-973.

8. Jurayeva, N. (2023). Mumtoz she'riyatda Bobur g'azallarining poetik xususiyatlari. Alfraganus, (1 (1)), 30-34.

9. Eshonqulova, S. (2020). Abdulla Qahhorning "Dahshat" hikoyasi tili va undagi sinonimlik hodisasi. *Интернаука*, 18(147 часть 3), 57.